

Dildora AXMEDOVA,

*Buxoro davlat universiteti doktranti (DSc),
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

SEMANTIK KENGAYTMADA SEMEMA VA UNING TARKIBIY QISMLARINI IFODALASH

Ma'lumki, leksema tashqi va ichki jihatdan tashkil topadi. Leksemaning tashqi qobig'i nomema deb ataladi. Nomema deganda leksemaning moddiy tomonini tashkil etgan fonemalar hosilasi – nutq tovushlari nazarda tutiladi. Masalan, [vatan] leksemasining tashqi tomoni v+a+t+a+n tovushlarining yig'indisidan iborat. Manbalarda ta'kidlanishicha, lisoniy birlik moddiylikdan xoli deya talqin qilinadi. Shunga ko'ra leksema ham boshqa lisoniy birlik kabi moddiylikka ega bo'lmasligi lozim. R.Sayfullayeva va boshqa mualliflar tomonidan nashr etilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida ushbu masala quyidagicha izohlanadi: "Moddiylik so'zi bu o'rinda bevosita sezgi a'zosiga ta'sir qiladigan deya jo'nlashtirilmasligi lozim. Yoki shakl deganda moddiy ko'rinishga egaliklarga tushunilmaydi. Biror narsa haqida o'ylar ekanmiz, ongimizda uning tashqi qiyofasini tasavvur qilgan holda boshqalaridan ajratamiz. Narsaning ongdagi qiyofasi ham shakl deyiladi. Nomema kishi biror leksema haqida o'ylaganda, ichki nutqda yaqqol ma'lum bo'ladi. Voqelangan tashqi nutqda bu shakl haqiqiy, real moddiy qiyofa kasb etadi. Demak, ongdagi leksemaning shakliy tomoni sezgi a'zolaridan tashqarida, unga ta'sir qilmaydigan holatda bo'lsa, leksema nutqiy voqelangan so'zga aylanadi, moddiy bo'lmagan shakl, ya'ni nomema moddiylik kasb etadi, sezgi a'zosi bilan his qilinadigan bo'ladi".

Leksemaning ichki, mazmuniy tomoni semema deyiladi. Semema ongda aks etgan narsa, belgi, miqdor, harakat kabi tushunchaning leksemada mujassamlashgan ko'rinishi. Boshqacha aytganda, semema – leksemaning ichki jihati. Birorta leksemaning sememasi ikkinchi leksemaning sememasiga aynan o'xshash bo'lmaydi. Boshqacha aytganda, bir xil sememaga ega ikkita leksema yo'q. Yuqorida ta'kidlangan darslikda bu fikr quyidagicha asoslanadi: "Bunga ikkita sinonim leksemaning sememasini qiyoslash asosida amin bo'lishimiz mumkin: [Yuz] – inson boshi old tomoni peshanadan iyakkacha bo'lgan qismining uslubiy betaraf ifodasi. [Bet] – inson boshi old tomoni peshanadan iyakkacha bo'lgan qismining so'zlashuv uslubiga xos ifodasi. Ko'rinadiki, birinchi sememadagi "uslubiy betaraf" unsuri ikkinchi sememada, ikkinchi sememadagi "so'zlashuv uslubiga xos" unsuri birinchi sememada yo'q. Agar semema aynan bo'lib qolsa, demak, bu ular tavsifida noqislik mavjud deyishga asos bo'ladi. Semema mukammal tavsiflanganda, bu tavsifdanoq ushbu tilni eng

nozik jihatlarigacha puxta bilgan kishi so'z qaysi leksema haqida ketayotganligini ravshan angelaydi". Demak, bu fikrdan shunday xulosa qilamizki, leksemalarning sememalarini berishda nihoyatda diqqatli bo'lish talab etiladi. Izohli lug'atlarda berilgan izohlarni qisqartirish, ixchamlashtirish yo'lidan borib, semalarning izoh sifatiga putur yetkazmaslik lozim. Shuningdek, sinonim leksemalarning semantik kengaytmasini tuzishda faqat havola berish yo'lidan borish yaxshi natija beravermaydi; sinonimlarga o'zaro havola berish bilan cheklanilsa, semalar ochilmay qolishi mumkin. Shu sababli semantik kengaytmalarni giperhavola bilan boyitishning aniq tamoyillari ishlab chiqilishi kerak.

Yuqorida tilga olingan manbada semalarni izohlash masalasiga quyidagicha munosabat bildiriladi: "Tilshunoslikda sememani tashkil etuvchi unsur sifatida sema ajratiladi. Masalan, [kitob] leksemasi ikki sememali bo'lib, uning bir sememasi "varaqdan tashkil topgan, muqovalangan, bosma yoki qo'lyozma holdagi davriy bo'lmagan o'quv vositasi" bo'lib, u quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: 1) varaqlardan tashkil topgan; 2) o'quv vositasi; 3) davriy bo'lmagan; 4) bosma yoki qo'lyozma holdagi; 5) muqovalangan. Sememada bir sema almashtirilishi bilan u butunlay boshqa sememaga aylanib ketishi mumkin. Masalan, yuqoridagi "davriy bo'lmagan" semasini "davriy bo'lgan" semasiga almashtirsak, u o'z-o'zidan [jurnal] leksemasining sememasi bo'lib qoladi". Ushbu fikrlar asoslangan, ularni tahlil qilishga ehtiyoj yo'q. Semantik kengaytmada leksemalarning semalarini buzmay, to'g'ri aks ettirishda aynan ushbu sitatada keltirilgan fikrlarga mutlaqo amal qilish lozim. Masalan, (e'tiborsizlik tufayli) semani almashtirish yoki qisqartirish semantik kengaytmaning bosh so'zi leksemaning barcha semalarini izohlamaslik yoki boshqa leksema kabi tasavvur paydo bo'lishiga olib keladi.

Olimlar tilshunoslikda sememaga munosabatda ikki yo'nalishni farqlashadi:

- ichdan yondashuv (ya'ni, sememadan leksemaga);
- sirdan yondashuv (ya'ni, leksemadan sememaga).

O'zbek tilshunosligida semema va tushuncha munosabati turlicha talqin qilinadi. Ayrim mutaxassislar semema, ko'pincha, ongimizdagi ma'lum bir tushuncha bilan bog'liq bo'ladi, deb hisoblaydi. Tushuncha

ong, mantiq birligi, semema esa tilga, leksemaga xos birlik. Ko'p holda bir semema bir necha tushunchani o'z ichiga oladi. Jumladan, [o'rik] leksemasining sememasi quyidagi tushunchalarda namoyon bo'ladi: a) ho'l mevaning bir turi; b) shu mevaning quritilgani; d) shu mevani beradigan daraxt. Shunga ko'ra tushuncha va semema o'zaro hamma vaqt ham mos kelavermaydi. Bu hodisa, ayniqsa, ma'nodosh leksemalarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Ko'rinadiki, lingvistik belgilardagi asimmetriya hodisasi semema va tushuncha munosabatida ham ko'rinadi. Semantik kengaytma tuzishda O'TILDagi izohlarga tayanamiz. Shu sababli semalarni berishda O'TILDagi kamchiliklar takrorlanishi tabiiy. Ammo mavjud semalarni tashlab ketish, izohlarni kamaytirishga yo'l qo'yishdan saqlanamiz. Masalan, O'TILda [o'rik] leksemasining uchta semasi keltirilgan bo'lsa, shu semalarning barchasi alohida sema sifatida kiritiladi va ko'rsatiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, semantik kengaytmaning interfeysdagi ko'rinishi va uni tashkil etuvchi ma'lumotlar bazasi ko'rinishi farq qiladi.

Tilshunos Sh.Rahmatullayev faqat sememaga ega birlikni leksema sifatida baholaydi: "Biz analiz yo'lga, ya'ni nutqdan tilga borish yo'lga o'rganib ketganmiz. Albatta, konkret birlikdan (so'zformadan) abstrakt birliklarga (so'zformani tarkib toptiruvchi birliklarga) borish oson ko'chadi. Shu yo'l bilan borib, so'zforma tarkibida leksik ma'no anglatuvchi qismni ajratamiz va uni leksema deb nomlaymiz. Asli leksik ma'no anglatuvchi til birligiga leksema deyiladi". Demak, olim leksema talqiniga ichdan (ma'nodan) kelib chiqqan holda munosabatda bo'lganligi tufayli nomustaqil birlikni leksema sifatida qarashni ma'qul ko'rmaydi. Bu kabi masalalar korpus lingvistikasi uchun nazariy muammo bo'la olmaydi. Zero, korpus lingvistikasi nazariy tilshunoslik yutuqlariga tayanadi, umumlashmalardan foydalanadi. Korpus lingvistikasi bu – amaliy tilshunoslikdir. Ammo shunday muammolar bo'ladiki, nazariy tilshunoslikda ularni yechmay turib, korpusga qo'llab bo'lmaydi.

Semema tarkibidagi sema bir xil emas. Sema mohiyatiga ko'ra uch xil bo'ladi:

- 1) atash semasi (denotativ sema);
- 2) ifoda semasi (konnotativ sema);
- 3) vazifa semasi (funktional sema).

Atash semasi borliq bilan, ifoda semasi so'zlovchining munosabati bilan, vazifa semasi esa leksemaning lison va nutqdagi roli bilan belgilanadi. Atash semasi leksemaning borliqdagi harakat-holatlik, narsa-predmetlik, miqdorlik, belgilik xususiyatini atovchi, nomlovchi semadir. Ular borliq, tushuncha va sememani bir-biriga bog'lab turadi. Masalan, yuqorida keltirilgan [kitob] leksemasining barcha semasi – atash semasi. Ushbu sema, tabiiyki, semantik kengaytmada aks etadi hamda semantik kengaytmaning birinchi qismi bo'ladi.

Ifoda semasi deganda semema tarkibida turli qo'shimcha ma'no (uslubiy bo'yoq, shaxsiy munosabat, qo'llanish doirasi va davri)ni atovchi sema tushuniladi.

Atash semasi kabi ifoda semasi ham leksema sememasini farqlash quvvatiga ega bo'lgan sema bo'lib, ular ham leksik paradigmada aniqlanadi. Masalan, [aeroplan] leksemasidagi "arxaik", [kompyuter] leksemasidagi "neologizm", [xarseb] leksemasidagi "shevaga xos" semasi qo'llanish davri va doirasini ko'rsatuvchi ifoda semasi. Ifoda semasi kengaytmada maxsus belgi bilan ajratib ko'rsatiladi. Masalan, qo'llanilish davrini ko'rsatuvchi pometa, shevaga xosligini ko'rsatuvchi teglar shular jumlasidandir.

Ifoda semasi ham muhim yoki muhim bo'lmagan turga ajratiladi. Shu boisdan farqlovchi, muhim ifoda semalari ingerent konnotativ sema va muhim bo'lmagan ifoda semalari adgerent konnotativ sema deyiladi. Vazifa semasi leksemaning birikuv-biriktiruv (valentlik) imkoniyatini, lisoniy qolipda qanday o'rinni egallashini bildiruvchi semadir. Masalan, [kitob], [daftar], [maktab], [bormoq] kabi leksemalarning valentlik imkoniyati o'ta keng va shu boisdan gapda turli gap bo'laklari vazifasida keladi. [Qat'iy], [keskin], [moviy], [qizg'ish] leksemalarining vazifa semasi tor va shu boisdan aniq. Ular ayrim so'zlar bilan birika oladi xolos. Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, leksemalarning valentlik xususiyati ham semantik kengaytmadan o'rin olishi maqsadga muvofiq.

So'z ma'lum predmet yo voqea-hodisa to'g'risidagi tushunchani ifodalab, real – leksik ma'noni anglatishi bilan birga ayni zamonda shu so'z boshqa kontekstda boshqa xil ma'noni bildirib kelishi ham mumkin. Masalan, "*Singlim, ko'zguni olib keling*", degan misolda "ko'zgu" so'zi o'zining dastlabki, real (leksik) ma'nosida qo'llanib, oyna haqidagi tushunchani ifodalamoqda.

So'zning leksik ma'nosi so'zning to'g'ri ma'nosi sanaladi. Masalan, quyosh, yulduz – planeta, bu ma'nolar quyosh, yulduz, xazina so'zlarining leksik, to'g'ri ma'nolari. So'zning leksik/bosh ma'nosi va uning o'z ma'nosidagi bir (yoki bir necha) semalar semantik kengaytmaning asosini tashkil etadi. Semantik kengaytmada, birinchi navbatda, so'zning o'z ma'nosi keltiriladi. Shundan so'ng, agar mavjud bo'lsa, ko'chma ma'nolari keltiriladi, ma'lumotlar bazasida buni ifodalovchi teglar qo'yiladi.

Kishilar ishlab chiqarish jarayonidagi, turmush va boshqa sohalardagi o'z tajribalariga tayanib, so'zlarini o'xshatish, kinoya, mubolag'a, sifatlash va boshqa usullar bilan xilma-xil ko'chma ma'nolarda foydalanadilar. Demak, so'zning o'z real, leksik, to'g'ri ma'nosidan tashqari, o'xshatish, mubolag'a yo kinoya kabi usullar bilan boshqa ma'nolarda qo'llanishi so'zning ko'chma ma'nosi deyiladi.

Hosila ma'no bir necha yo'l bilan vujudga keladi: metafora, metonimiya, sinekdoxa va vazifadoshlik kabi. Hosila ma'no to'g'ri, bosh ma'nolar asosida paydo bo'ladi.

Metafora, avvalo, nutq mexanizmi, biror leksema denotativning tashqi, zohiriy o'xshashligi asosida boshqa ma'noni ifodalash uchun ishlatilishi. Metaforik ma'no hosil bo'lishi uchun quyidagilardan biri sabab bo'ladi:

1) bir soʻz boshqa soʻzga nisbatan soʻzlovchining ifoda maqsadiga koʻproq mos va muvofiq boʻladi, shuning uchun birinchisi oʻrnida ikkinchisi qoʻllaniladi;

2) biror denotatning ifodalovchisi boʻlmaydi va maʼlum bir soʻz boshqa denotatni ham ifodalash uchun qoʻllanadi.

Demak, birinchi holda koʻchirilayotgan soʻz denotatning ikkinchi atamasi boʻlsa, ikkinchi holda birinchi atamasidir. Masalan, “quyi” soʻzi anglatadigan maʼnoni “etak” soʻzi qulayroq va toʻlaroq ifodalaganligi bois togʻning quyi tomoniga nisbatan “etak” soʻzi ishlatilgan. Oʻzbek tilida dengizdagi oʻziga xos joʻgʻrofiy oʻrinning nomi boʻlmaganligi bois “qoʻltiq” soʻzi unga nisbatan ham qoʻllanadi.

Agar bu kabi maʼnolar (OʻTIL) lugʻatda aks ettirilgan boʻlsa, uni semantik kengaytmada belgilab koʻrsatish zarur. Bu kabi maʼnolar OʻTILda koʻrsatilmagan boʻlsa, u holda semantik kengaytmani kengaytirish imkoni yoʻq. Odatda, OʻTILda metaforik maʼnolar keltiriladi. Buni quyidagi soʻz misolida tahlil qilamiz:

JIGʻILDON 1 Qushlarning qiziloʻngachidagi ovqat toʻplanadigan va yumshatadigan buqoqsimon keng joy. Xoʻrozchanning jigʻildoni mushtday shishib chiqdi. M.Ismoiliy, Fargʻona t. o. **2 koʻchma** Tomoq, qursoq (nafs haqida). Jigʻildon xuruj qilgan yerda vijdonga yoʻl yoʻq. Uygʻun, Hayot qoʻshigʻi. Undan hazar qiling: jigʻildoniga Ular oʻz onasin alishgan inson. Shukurullo, Javohirlar sandigʻi.

Koʻrinyaptiki, “jigʻildon” soʻzining metaforik maʼnosi koʻchma pometasi ostida berilgan. Demak, semantik kengaytmada ushbu soʻzning birinchi va ikkinchi maʼnolari ajratib koʻrsatilishi hamda koʻchma tegi ostida metaforik maʼnosi berilishi mumkin boʻladi.

Koʻrinadiki, OʻTILda soʻzning koʻchma maʼnosiga ishora qilinadi, ammo maʼno koʻchish usuli koʻrsatilmaydi. Semantik kengaytmaning maʼlumotlar omborini ishlab chiqishda maʼno koʻchish usullarini koʻrsatuvchi ustunlar kiritish maqsadga muvofiq. Shunda maʼno koʻchishining qaysi usuli mavjudligi semantik kengaytmada koʻrinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Oʻquv qoʻllanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.
2. Rustamov A. Soʻz xususida soʻz. – Toshkent: Oʻzbekiston LKSM Markaziy “Yosh gvardiya” nashriyoti, 1987.
3. Axmedova D.B. Semantik razmetka tizimida koʻp maʼnolilik va filtr // Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining axborotnomasi, 2020, 1-son.
4. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Besh jildli. 1-jild. – Toshkent: OʻzME, 2006.
5. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Besh jildli. 2-jild. – Toshkent: OʻzME, 2006.

Tahlil



Shahnoza RAHMONOVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti, PhD

XORAZMIY “MUHABBATNOMA”SI BADIYYATI

Xorazmiyning “Muhabbatnoma”si Sharq mumtoz adabiyotida noma janridagi ilk turkiy asar hisoblanadi. N.Rahmonov shoirning ismi faqat Poʻlatjon Qayumovning “Tazkirayi Qayyumiy”sida berilganligini aytadi. Xorazmiy haqida “Tazkirayi Qayyumiy”da quyidagi maʼlumotlar keltiriladi: “...bu kishi Nozim Xorazmiy deb yuritiladurki, oʻzining “Muhabbatnoma” nomli yirik asari XIV asrning buyuk klassik yodgori bilan tanilmishdur. Shoirning tarjimai holigina emas, hattoki nomi ham zamonamizda maʼlum boʻlmadi. Lekin asari moʻtabar kitobdur. Bu asar ham Oltin (Oʻrda) hukmdorlari davrida yozulmish qadimgi asardur” [1: 22]. Shuningdek, tazkirada “Muhabbatnoma”dagi Xoʻjabek shaxsi toʻgʻrisida ham maʼlumotlar va asardan parcha berilgan.

Navoiy oʻzining “Majolis un-nafois” asari birinchi majlisida Xorazmiy taxallusida ijod qilgan ikki ijodkor: Xoja Abdulvafoyi Xorazmiy hamda Mavlono Husayn Xorazmiy haqida yozgan. Anglashiladiki, bular Nozim

Xorazmiy emas. Lekin Navoiy ijodini oʻrganar ekanmiz, “Muhokamat ul-lugʻatayn”da Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asaridagi ayrim misralarga duch kelamiz. Xususan:

*Aningkim, ol enginda meng yaratti,
Boʻyi birla sochini teng yaratti, –*

singari bayt Xorazmiy “Muhabbatnoma”sining kirish qismidan oʻrin olgan. Bundan asosli bir savol tugʻiladi: agar Navoiy Xorazmiy haqida maʼlumotga ega ekan, uning ijodi va hayoti haqida tazkirasida nega maʼlumot bermagan?! Bizning taxminimizcha, Xorazmiy bir joyda muqim yashab ijod qilmagan. Xorazmdagi siyosiy va adabiy muhitning notinchligi bois shoir dastlab Oltin Oʻrdaga, keyinchalik esa Misrda tashkil topgan Mamluklar davlatiga kelib ijod qilgan. Shuningdek, Navoiyning tazkirasida Oltin Oʻrdada ijod qilgan shoirlarning birortasi haqida maʼlumot keltirilmagan,